

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**EKOLOGIYA VA GEOGRAFIYA KAFEDRASI**



**XIDIRALIYEV K.E.**

**“DUNYO AHOLISI VAQT VA MAKON DOIRASIDA”**

**(Elektron resurs)**

**Xidiraliyev K.E. “Dunyo aholisi vaqt va makon doirasida” (elektron resurs). – Guliston, 2024. -11 b.**

Ushbu elektron resursda dunyo aholisining dinamikasi, dunyo aholisining o‘ziga xos o‘sish va kamayishi, bu jarayon bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bat afsil keltirilgan. Elektron resursdan “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanida o‘tiladigan aholi (dunyo aholisi) mavzusini o‘tishda qo’shimcha manba sifatida foydalaniladi. Elektron resurs Geografiya, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo’nalishlaridagi talabalarga qo’shimcha o’quv manbasi sifatida mo’ljallangan.

Elektron resurs Guliston DU ning “Ekologiya va geografiya” kafedrasи (9-bayon nomma, 29-aprel 2024 yil) tomonidan qo’shimcha o’quv manbasi sifatida tavsiya qilingan.

**Taqrizchi:** Geografiya fanlari nomzodi, dots. L.K.Karshibayeva

**Kirish.** Aholi deganda ma'lum hududda (butun yer shari, uning ayrim qismlari-qit'alar, mamlakatlar, shaharlar, rayonlar va hokazolarda) yashayotgan kishilar guruhi tushuniladi. Aholini geografik jihatdan o'rganishida quyidagilarga e'tibor berish **zarur:** 1. Aholi-ishlab chiqarish sub'ekti, barcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi. 2. Ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotlardan ma'lum qismining is'temolchisi. 3. Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo qilinishi zarur. Dunyo aholisi ma'lum bir vaqtida Yerda yashovchi barcha odamlar sonining umumiy yig'indisidir. 2022-yil noyabr holatiga ko'ra, dunyo aholisi taxminan 8 milliard kishidan oshiqdir.

Dunyo bo'yicha jonli statistika ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisi (20:02 31.03.2024-8110238470 kishi, bu yil tug'ilganlar-185252525 kishi, vafot etganlar-83825737 kishi, aholining o'sishi-101426788 kishi).

1970-yillarga qadar dunyo aholisi giperbolik tarzda o'sgandi. 1990-yildan boshlab esa, dunyo aholisining o'sish sur'atining sekinlashuvi kuzatilmoqda, 1990-yilda o'sish 87,4 millionni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yillardagi o'rtacha o'sish 1963-yilga nisbatan qariyb ikki baravar kamaydi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 1994-2014-yillarda 60 yoshdan oshgan odamlar soni ikki baravar ko'paydi va 2014-yilga kelib dunyoda qariyalar soni besh yoshgacha bo'lgan bolalar sonidan oshib ketdi. CIA World Factbook ning 2020-yil bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, Yaponiya dunyodagi barcha mamlakatlar orasida eng yuqori o'rtacha yoshiga ega-48,6. 2020-yil holatiga ko'ra, Yaponiya aholisining 29,18 foizi 65 yoshdan oshgan.

Aholi soni bo'yicha dunyodagi eng yirik davlat-Xitoy, ikkinchi o'rinda Hindiston turadi. 1991-yilgacha Sovet Ittifoqi aholi soni bo'yicha uchinchi o'rinda turar edi, u parchalanganidan keyin, 2006-yildan keyin 300 millionondan ortiq aholiga ega Amerika Qo'shma Shtatlari uchinchi o'rinni egalladi. Indoneziya va Pokiston aholi soni bo'yicha to'rtinchi va beshinchi o'rirlarda, Nigeriya, Braziliya, Bangladesh, Rossiya mos ravishda oltinchi, ettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi o'rirlarni egallagan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi soni yillar kesimida quyidagi qiymatga ega:  
-1 milliard-1804;  
-2 milliard-1927;  
-3 milliard-1960;  
-4 milliard-1974;  
-5 mlrd-1987-yil 11-iyul;  
-6 milliard-1999-yil 12-oktyabr;  
-7 milliard-2011-yil 31-oktyabr;  
-8 milliard-2022-yil 15-noyabr (taxminan).  
8110238470 kishi-**20:02 31.03.2024**.

Agar aholi sonining o'sish dinamikasi keskin o'zgarishlarga uchramasa, 9 milliard kishilik marrani taxminan 2042-yilga qadar bosib o'tiladi. Jamg'arma ba'zi bolalarni shartli ravishda sayyoramizning 5, 6 yoki 7 milliard aholisi deb e'lon qilib Shartli Tadbirlar tashkil qilib turadi.

Gollandiyaning matematika va informatika markazining statistik mutaxassisi Piter Grunvaldning taxminiy hisob-kitoblariga ko‘ra, insoniyatning 162 ming-yillik tarixida Yerda 107 milliarddan ortiq odam tug‘ilgan.

### Aholi soni bo‘yicha dunyodagi eng yirik davlatlar:

1.  Hindiston-1 423 761 000;
2.  Xitoy-1 412 600 000;
3.  AQSh-333 341 174;
4.  Indoneziya-275 773 800;
5.  Pokiston-229 488 994;
6.  Nigeriya-216 746 934;
7.  Braziliya-215 407 834;
8.  Bangladesh-168 220 000;
9.  Rossiya-147 190 000;
10.  Meksika-128 271 248.

2023 yil Dunyo aholisi 8 milliardga yetdi: Yerda odamlar soni ideal miqdorda bo‘lishi kerakmi? BMT e’lon qilgan so‘nggi hisobotga ko‘ra, 15 noyabr kuni dunyo aholisi 8 mlrd kishiga yetdi. **2023** yilda Hindiston Xitoyni ortda qoldirib, dunyoning aholisi eng ko‘p mamlakatiga aylanishi kutilmoqda (**1-rasm**).



**1-rasm. Dunyo aholisi**

**Tadqiqotning maqsadi.** Dunyo aholisini o‘sishi va kamayishi jarayonlarini o‘rganish asosida, bugungi kunda aholi soni bilan bog‘liq holda kelib chiqayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Ikkinci jahon urushidan keyin Yer yuzida aholi soni o‘sishi kuzatilmoqda. Faqat 2020 yil pandemiya davrida dunyo aholisi o‘sish tezligi 1 foizga pasaygani qayd etilgan. 2022 yil 15 noyabr holatiga ko‘ra, dunyo aholisi 8 milliardni tashkil qilgan.

Aholi soni ko‘payib borayotgan bir paytda tadqiqotchilar turli tahlillar o‘tkazib, XXI-asr oxirida Yerda qancha odam bo‘lishi bo‘yicha o‘z taxminlarini e’lon qilib borishadi. Ulardan biri va eng asosiysi 2022 yil iyulida BMT e’lon qilgan natijalardir. Tashkilotning yangi tahlillariga ko‘ra, Yerdagি odamlar soni 2030 yilda 8,5 mlrd, 2050 yilda esa 9,7 mlrd bo‘ladi. O‘sish 2080-yillarga borib, o‘zining eng yuqori nuqtasiga chiqadi va dunyo aholisi **10,4** mlrd kishiga yetadi. Va bu miqdor 2100 yilgacha saqlanib qoladi.

AQShdagi Vashington universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqot esa XXI-asr oxirlarida dunyo aholisi soni nafaqat o‘sishdan to‘xtashi, balki qisqara boshlashini prognoz qilmoqda. Lancet jurnalida chop etilgan bu tadqiqotga ko‘ra, dunyo aholisi soni 2064 yilda 9,7 mlrd kishiga yetadi va asr oxiriga borib, 8,8 mlrd kishiga tushib qoladi.

Unda aytishicha, keyingi 80 yil ichida aholi soni Yaponiya, Ispaniya va Italiyada ikki baravar, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubi-g‘arbiy qismida esa uch baravar kamayib ketadi. 2100 yilga borib, 65 yoshdan oshgan odamlar soni 2,4 mlrd kishini, 20 yoshgacha bo‘lganlar soni esa 1,7 milliardni tashkil qiladi. Ya’ni dunyoda keksalar yoshlardan ko‘p bo‘ladi.

Jahon aholisining 2022 yilgacha bo‘lgan holati ko‘p mamlakatlarda so‘nggi o‘n yilliklarda tug‘ilish sezilarli darajada pasayganini ko‘rsatgan. Bunday tendensiya asosan rivojlangan davlatlarda kuzatiladi. Masalan, Yaponiyada 2021 yilda tug‘ilishlar soni rekord darajada kam bo‘lgan va aholi sonining tabiiy qisqarishi bo‘yicha ham antirekord qayd etilgan. O‘tgan yili mamlakatda 812 mingga yaqin chaqaloq tug‘ilgan. Bu ko‘rsatkich 1899 yildan beri eng kam tug‘ilish bo‘ldi. Bir yillik o‘lim soni qariyb 1 mln 440 mingni tashkil qildi. Bu esa mamlakat aholisi o‘sish o‘rniga kamayganini anglatadi.

Shu bilan birga, Yaponiya dunyoning eng tez qariyotgan mamlakati hamdir. Aholisining 30 foizini 65 yoshdan oshganlar tashkil qiladi. Yaponiya tug‘ilish kamayib borayotgan yagona sharq davlati emas. Janubiy Koreya, Xitoy, Tayvan, Singapurda ham tug‘ilish ko‘rsatkichlari yuqori emas. "Hukumatlarning tug‘ilishni kamaytirishga qaratilgan harakatlari bir necha o‘n yillar davomida saqlanib qolsa, asrning ikkinchi yarmida global aholi o‘sishining sezilarli darajada sekinlashishiga olib kelishi mumkin", – degan BMTning Iqtisodiy departamenti Aholishunoslik va ijtimoiy masalalar bo‘limi direktori Jon Vilmot.

2050 yilgacha dunyo aholisining prognoz qilinayotgan o‘sishining yarmidan ko‘pi 8 davlat hisobiga to‘g‘ri keladi. **Bular** Kongo Demokratik Respublikasi, Misr, Efiopiya, Hindiston, Nigeriya, Pokiston, Filippin va Tanzaniya Birlashgan Respublikasi.

**Tadqiqot ob’ektlari va metodlari.** Ilmiy tadqiqot obekti sifatida-Dunyo va uning mintaqalarida aholining vaqt davomida o‘zgarib borish jarayoni va u bilan bog‘liq muammolar olingan. Aholini o‘rganish jarayoni aholi geografiyasi va demografiya asoslari fani doirasida kechadi. Demografiya mustaqil fan sifatida o‘z **tadqiqot** usullariga egadir. Ular jumlasiga tarixiy, taqqoslash, statistika, matematika, kartografik, mantiqiy fikrlash va sotsiologik uslublar kiradi. Demografiyaning tahlil uslubi statistikadan farq qiladi. Unda mavhum fikrlash

uslubidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari ham o'rganiladi. Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish maxsulidir, shu sababli aholi turli omillar zaminida ko'payadi. Bu jihatdan demografiya tahlil mavzui iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, psixologiya, matematika, statistika, ijtimoiy gigiena, geografiya, tibbiyat, tarix, etnografiya va boshqa fanlar tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, shu fanlarning yutuqlaridan foydalanadi. Ayni vaqtida ularga qimmatli ma'lumotlar beradi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Afrikaning ko'pgina mamlakatlarida, shuningdek, Osiyo va Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqalarida tug'ilish qisqarishi tufayli mehnatga layoqatli 25 yoshdan 64 yoshgacha aholi ulushi ortib bormoqda. 65 va undan katta yoshdagagi dunyo aholisining ulushi 2022 yildagi 10 foizdan 2050 yilda 16 foizgacha ko'tarilishi prognoz qilinmoqda. Ya'ni dunyo bo'ylab 65 va undan katta yoshdagilar soni 5 yoshgacha bo'lgan bolalar yoki 12 yoshgacha bo'lgan bolalar sonidan 2 barobar ko'proq bo'lishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar oldida aholining qarishi va kamayishi ishchi kuchi va malaka taqchilligiga olib keladi. Keksalar ko'pligi iqtisodiy samaradorlik va innovatsiyalarni sustlashtiradi, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni sekinlashtiradi, hukumatlar va odamlarga barqaror moliyaviy bosim o'tkazadi. Jamiyatlarda madaniy va etnik siljishlarga olib keladi, siyosiy va etnik o'zgarishlar, mamlakatlar harbiy kuchi kamayishi kabi muammolarni ham ko'ndalang qo'yadi.

BMT aholisi qarib borayotgan mamlakatlarga davlat dasturlarini keksalar sonining o'sishiga moslashtirish, umumiyy sog'liqni saqlash va uzoq muddatli parvarish tizimlarini yaratish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari barqarorligini oshirish kerakligini tavsiya qilgan.

Tug'ilish kamayishi sabablari sifatida ta'lim va ish jarayonlarida ayollar ko'pligi, homiladan saqlanish vositalari, erkaklar butun e'tiborini karera qilishga qaratib, oila haqida unutib qo'yishayotgani sabab bo'layotgani aytildi. Hozirgi kunda ayrim davlatlar aholini ko'paytirish uchun turli mexanizmlardan foydalanmoqda. Ba'zilari ayollarga homilasini olib tashlashni cheklamoqda. Ayrim davlatlarda ayollarning huquqlarini kengaytirish va tenglikka zid bo'lган gender stereotiplari targ'ib qilinmoqda. BMT esa mamlakatning demografik holati qanday bo'lishidan qat'i nazar, inson huquqlarini buzuvchi aholi siyosatini qo'llashni oqlamasligini ma'lum qilgan.

Dunyo aholisi soni doimiy o'zgarishda bo'lar ekan, ayrim tadqiqotchilar dunyo uchun ideal aholi soni bo'lishi kerakmi degan savolni o'rtaga tashlaydi. BMT esa buni butunlay rad etgan. "Ideal aholi sonini aniqlash va unga erishish uchun har qanday urinish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bundan tashqari, biz avvalo ideal populyatsiya hajmini aniqlash uchun umumiyy mezonlar bo'lishiga qarshimiz.

**Ikkinchidan**, shunday mezonlar bo'lган taqdirda ham, insoniyat ideal aholi soniga qanday erishish mumkinligini bilmaydi. Chunki tug'ilishlarni oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ham vaqtinchalik ta'sir ko'rsatadi. Ma'lum davrdan keyin bu ham samara bermay qo'yadi.

**Uchinchidan**, biz tug‘ilishni ko‘paytirish yo‘lini topsak ham bu vaqtinchalik yoki doimiy siyosat bo‘lishi borasida aniq qarorga kelishimizga to‘g‘ri keladi”, -deyiladi tashkilot hisobotida.

Dunyo aholisi soni 8 mlrddan oshdi. Countrymeters loyihasi hisob-kitoblariga ko‘ra, 15 avgust kuni dunyo aholisining soni 8 mlrddan oshdi. Ularning 4,04 mldr nafari erkak, 3,96 mldr nafari ayollardir. Dunyoning qariyb 70% aholisi 20 davlatda yashamoqda. Qit’alar bo‘yicha esa eng ko‘p insonlar Osiyoda-4,7 mldr kishi.

Countrymeters loyihasi ma’lumotlariga ko‘ra, 15 avgust kuni dunyo aholisining soni 8 mlrddan oshdi. Ularning 4,04 mldr nafari erkak, 3,96 mldr nafari ayollardir. Bu bilan erkaklar va ayollar soni o‘rtasidagi tafovut 1,018 ni tashkil etmoqda.

Qayd etilishicha, Er sayyorasida yashovchi aholi sonining 1 mldr kishiga etishi uchun 200 ming yildan ko‘proq vaqt ketgan. «Ushbu raqam 7 mlrdga etishi uchun esa 200 yil kerak bo‘ldi, xolos», -deyiladi loyiha saytida. Ikki davlatda 1 mlrddan ortiq aholi yashaydi: Xitoy va Hindiston. Xitoy aholisi eng ko‘p bo‘lgan davlat bo‘lsa-da, taxminan 2023 yilga kelib, Hindiston aholisi soni eng ko‘p mamlakatga aylanishi mumkin.

BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi hisob-kitoblariga ko‘ra, keyingi yillarda Er aholisi quyidagi bosqichda o‘sib bordi:

- 1 mldr-1804;
- 2 mldr-1927 (123 yildan keyin);
- 3 mldr-1960 (33 yildan keyin);
- 4 mldr-1974 (14 yildan keyin);
- 5 mldr-1987 (13 yildan keyin);
- 6 mldr-1999 yil 12 oktyabr (12 yildan keyin);
- 7 mldr- 2011 yil 31 oktyabr (12 yildan keyin).

Qayd etilishicha, 2022 yilda Er aholisining o‘sishi davom etib, 8,04 mlrdga etadi. Tabiiy o‘sish esa 98,4 mln kishini tashkil qiladi. Dunyo aholisi soni qit’alar bo‘yicha quyidagicha hisoblanmoqda:


- Osiyo-4 mldr 752 mln;
- Afrika-1 mldr 415 mln;
- Evropa-751 mln;
- SHimoliy Amerika-604 mln;
- Janubiy Amerika-440 mln;
- Okeaniya-44 mln.

Dunyo aholisining o‘rtacha yoshi 2018 yilda 30,4 yoshni tashkil qildi. Insonlarning o‘limiga eng ko‘p yurak (miokard) ishemiyasi, insult, pastki nafas yo‘llarining infeksiyalari, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi, o‘pka saratoni kabi kasalliklar sabab qilib ko‘rsatilgan sayt ma’lumotlarida.

Countrymeters aholi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shu jumladan dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun aholi hisob-kitoblarini yurituvchi loyiha hisoblanadi. «Ushbu raqamlar turli xil ochiq statistik ma’lumotlar bazalariga asoslanadi. Loyiha internetda mavjud bo‘lgan eng aniq va ishonchli ma’lumotlarni

topishga harakat qiladi. Biroq Countrymeters o‘zi foydalanadigan ma’lumotlarning haqiqiyligiga kafolat bermaydi», -deyiladi loyiha saytida.

Quyidagi grafikda esa so‘nggi 60 yil ichida qit’alarda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining o‘zgarishi ko‘rsatilgan.



**2-rasm. Quyidagi grafikda so‘nggi 60 yil ichida qit’alarda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining o‘zgarishi ko‘rsatilgan**

O‘z navbatida, Countrymeters to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita hech qanday davlat tashkiloti, BMT yoki jamoat xayriya, notijorat yoki xususiy jamg‘armaga tegishli emasligi yoki boshqarilmasligi ta’kidlanadi. Countrymeters BMT yoki boshqa biron bir rasmiy tashkilot bilan bog‘lanmagani yoki biron-bir rasmiy maqomga ega emasligi qayd etilgan.

**Asrning o‘rtalariga kelib, mamlakatlarning 76 foizi aholini to‘ldira olmaydi. TOSHKENT, 31 mart-Sputnik.** Asrning o‘rtalariga kelib, aksariyat mamlakatlar demografik o‘tish davrini yakunlaydi. Keyin esa katta muammolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan jarayon boshlanadi, deya xabar berdi RIA Novosti.

Aholining oddiy ko‘payishi uchun bir ayol o‘rtacha umri davomida kamida 2,1 bolani dunyoga keltirishi kerak. Ko‘rsatkich, albatta, hisoblab chiqilgan-bu tug‘ilishning umumiylarini deb ataladi. O‘tgan asrning boshida u deyarli beshga teng edi, keyin esa keskin pasayib ketdi. Ba’zi rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilishning umumiylarini juda past, ya’ni aholi soni to‘ldirilmaydi.

Olimlarning fikricha, tug‘ilishning pasayishi demografik o‘tish deb ataladigan narsani aks ettiradi. Bu konsepsiya o‘tgan asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan va bugungi kunda tobora ko‘proq dalillarni qabul qilmoqda. Mamlakatlar rivojlanishning uch bosqichiga ega deb taxmin qilinadi. Dastlab, tug‘ilish va o‘lim darajasi yuqori, populyasiya esa pastligicha qolmoqda. Keyin tibbiyot taraqqiyoti

tufayli o‘lim kamayib, turmush sharoiti yaxshilanadi, umr ko‘rish davomiyligi uzayadi, aholi soni keskin oshadi. SHu bilan birga, tug‘ilish darajasi pasaymoqda.

Uchinchi bosqichda tug‘ilish va o‘lim darajasi past, muvozanatda va barqaror odamlar soni mayjud. Hisob-kitoblarga ko‘ra, tug‘ilishning umumiy darajasi 5,5 dan past bo‘lgan mamlakatlar ikkinchi bosqichda. Bugun bu butun dunyo. Qayd etilishicha, kollaps 2024 va 2030 yillar oralig‘ida sodir bo‘ladi, chunki resurslar tugaydi, bu esa tanqidiy ifloslanishdan oldin amalga oshiriladi.

Hozir er yuzida 7,8 milliard odam bor. Birlashgan Millatlar Tashkilotining prognozlariga ko‘ra, asr oxirigacha 10,4 mlrd bo‘ladi. Demografik o‘tish modeliga ko‘ra, turg‘unlik shu darajadan boshlanishi kerak. YAqinda The Lancet Xalqaro tug‘ilish va prognozlash dasturining hisobotini e’lon qildi. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, 2021 yil uchun sayyoramizning tug‘ilish darajasi ko‘rsatkichi 2,23 ni tashkil qiladi.

94 ta davlat uchun bu ko‘rsatkich hanuzgacha juda muhim. Ularning deyarli yarmi Afrikada, Sahroi Kabirdan janubda joylashgan. Asrning o‘rtalariga kelib, aholi o‘zini ko‘paytirishga qodir bo‘lmaydi. 2100 yilga kelib faqat oltita davlatda tug‘ilish darajasi normal bo‘ladi.

Ba’zi olimlar tug‘ilishning kamayishini yaxshi narsa deb bilishadi, chunki aholi sonining keskin o‘sishi ekologik xavflarni oshiradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo‘limi 2023 yil yakunida dunyo aholisi soni 8 milliardga etishini taxmin qilmoqda. Hindistonda aholining o‘sish sur’atlari yuqori, mamlakat 2023 yil o‘rtalariga kelib Er yuzidagi eng ko‘p aholiga ega davlatga aylanishi kutilmoqda.

Ayni paytda Xitoyda aholi sonining o‘sishi butunlay to‘xtadi, BMT yaqin tarixda birinchi marta mamlakatda aholi soni qisqarishini bashorat qilmoqda. Osiyo hozirgacha Er yuzidagi eng gavjum qit’a va dunyodagi bir qancha aholisi ko‘p davlatlar: Indoneziya, Pokiston, Yaponiya va Bangladeshning vatani hisoblanadi. Bu dunyodagi 12 yirik davlatning yarmini osiyoliklar egallay olishini anglatadi.

BMT hisoblariga ko‘ra, Osiyo aholisi 2055 yilda eng yuqori cho‘qqisiga -5,3 milliardga etadi. Taxminlarga ko‘ra, Lotin Amerikasi aholisi soni bu vaqtda taxminan 752 millionga yaqin bo‘ladi. Afrika va SHimoliy Amerika aholisi o‘sishda davom etishi kutilmoqda, Evropa aholisi esa kamayib bormoqda.

2022 yil oxirida Hindiston aholisi, World Population Review (WPR) hisob-kitoblariga ko‘ra, 1,417 milliard kishini tashkil qildi-bu Xitoy aholisidan 5 millionga ko‘p demakdir, u erda esa, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘rsatkich 1,412 milliard kishiga teng bo‘lgan. Bu haqda Bloomberg xabar berdi.



## 2-rasm. Aholining kundalik faoliyati

BMT Hindiston Xitoydan o‘zib ketib, aholi soni bo‘yicha dunyoda etakchiga aylanishini bashorat qilgan edi, ammo bu keyinroq yuz berishini kutgandi. WPR’ning 18 yanvardagi ma’lumotlariga ko‘ra, Hindiston aholisi yana ko‘payib, 1,423 milliard kishiga tenglashgan. Macrotrends tadqiqot platformasi hisobkitoblari bo‘yicha ham bu ko‘rsatkich 1,423 milliardni tashkil qiladi.

Hindiston o‘z aholisi soni haqida yangi ma’lumotlarni rasman e’lon qilgani yo‘q. Mamlakat odatda har o‘n yilda bir marta aholini ro‘yxatdan o’tkazadi, biroq 2021 yilda bu pandemiya tufayli keyinga qoldirilgandi.

BMT prognoziga ko‘ra, Hindiston va Xitoy o‘rtasida aholi soni bo‘yicha farq yaqin yillarda sezilarli darajada ortib boradi. 2050 yilga kelib, Hindiston aholisi 1,688 milliard kishini tashkil qiladi, Xitoya esa 1,317 milliard kishi yashaydi, degan fikrda tashkilotdagilar.

Umuman olganda, Kongo Demokratik respublikasi, Misr, Efiopiya, Hindiston, Nigeriya, Pokiston, Filippin va Tanzaniya aholisi eng ko‘p o‘sishi kutilmoqda. BMT prognoziga ko‘ra, 2050 yilgacha kutilayotgan aholi soni o‘sishining yarmidan ko‘pi shu mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Eslatib o‘tamiz, 2022 yilda Xitoy aholisi soni 850 ming kishiga qisqarib, 1 milliard 411 million 750 ming kishiga tushib qoldi. So‘nggi marta bu ko‘rsatkich 1961 yilda, mamlakatda ommaviy ocharchilik kuzatilgan vaqtida pasaygan edi. Bir yil ichida mamlakatda 9,56 million kishi tug‘ilib, 10,41 million kishi vafot etgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „World Population Clock: 7.95 Billion People (2022)-Worldometers“ (en). worldometers.info. Qaraldi: 2022-yil 7-iyun.
2. Ekspertniy portal Visshey shkoli ekonomiki.
3. OON: naselenie Zemli dostiglo 7,2 mlrd chelovek (Wayback Machine saytida 2019-12-22 sanasida arxivlangan) // Vesti Ekonomika

4. „East Asia/Southeast Asia :: Japan — The World Factbook — Central Intelligence Agency“. 2010-yil 28-dekabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2020-yil 21-noyabr.
5. „World — The World Factbook — Central Intelligence Agency“. 2016-yil 16-noyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2020-yil 15-dekabr.
6. „Naselenie Zemli v 2100 godu sostavit 11 milliardov chelovek“. Lenta.ru (18 sentyabrya 2014). Qaraldi: 2020-yil 2-oktyabr.
7. „Osenyu chislennost naseleniya Zemli dostignet 8 mlrd chelovek“ (ru). Forbes.ru. Qaraldi: 2022-yil 21-iyul.
8. „V OON rasskazali, kogda naselenie Zemli dostignet 8 mlrd chelovek“ (ru). RBK. Qaraldi: 2022-yil 21-iyul.
9. „Mid Year Population (Thousand People)“. Badan Pusat Statistik – Indonesia. Qaraldi: 2022-yil 16-mart.
10. Times, The Moscow „Russia Reports 147M Population in 2021“ (en). Moscow Times (2022-yil 30-may). Qaraldi: 2022-yil 2-iyun.

### **Annotatsiya**

#### **Xidiraliyev K.E. “Dunyo aholisi vaqt va makon doirasida”.**

Elektron resursda bugungi kunda dunyo aholisining o'sishi va kamayishiga xos xususiyatlar tahlil qilingan. Jumladan, dunyo aholisi soni bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o'rganilgan, bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** Aholi, jarayon, geografiya, demografiya, top o'ntalik, tug'ilish, kamayish.

### **Аннотация**

#### **Хидиралиев К.Э. «Население мира во времени и пространстве».**

В электронном ресурсе анализируются особенности роста и убыли населения Земли сегодня. В частности, были изучены социально-экономические проблемы, связанные с численностью населения планеты, и разработаны рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** Население, процесс, география, демография, десятка, рождаемость, спад.

### **Annotation**

#### **Khidiraliyev K.E. "World Population in Time and Space."**

The electronic resource analyzes the characteristics of the growth and decline of the Earth's population today. In particular, socio-economic problems related to the size of the planet's population were studied and recommendations were developed to eliminate them.

**Key words:** Population, process, geography, demography, ten, birth rate, decline.